



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No6(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,
16-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	10
<i>Fazliddin Abdunabiyeovich Abdurazaqov</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	15
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari	21
<i>Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati	25
<i>Nabijonova Feruza Valijon qizi</i>	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni	28
<i>O'rinova Nilufar Muxammadovna</i>	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi	32
<i>Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.</i>	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari	37
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	41
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	44
<i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ilhombek o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida)	47
<i>Abduraxmanova Charos Burxanovna</i>	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities	51
<i>Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna</i>	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi	55
<i>Allanazarova Sadoqat Azimovna</i>	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari	59
<i>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</i>	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов)	63
<i>Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова</i>	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students	67
<i>D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova</i>	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish	70
<i>Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
<i>Jumanov Sherzod Saloyevich</i>	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari	78
<i>Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi</i>	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari	83
<i>Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari	86
<i>Qahramonova Xumora Qahramonovna</i>	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati	91
<i>Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich</i>	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ	95
Мансурова Гульмира Рафаэловна	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики	101
Рауфова Озода	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari	105
Choriyeva Dildora Ismat qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida	109
Tangriyev Abdukarim Tovashevich	

XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA SHAXS NUTQINING SHAKLLANISHIDA PSIXOLINGVISTIKANING AHAMIYATI

Ahmedov Shavkat Asadilloevich

Toshkent amaliy fanlar universiteti assistent o'qituvchisi

Ataboev Navruz Ilhombek o'g'li

Toshkent amaliy fanlar universiteti assistent o'qituvchisi

Annotatsiya: Shaxsning tilni o'zlashtirishning asosiy prinsiplari va boshqa tillarni o'rgatish imkoniyatlari, texnik analogiyalar yordamida tushuntirilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Bolaning miyasini yangi, hech qanday ma'lumot bilan to'ldirilmagan oq qog'ozga yoki kompyuterga qiyoslash mumkin. Bola muloqot va o'rganish jarayonida atrof-muhitdan ma'lumotni qabul qilib, uning psixofiziologik tizimi yangi neyron aloqalarni ishlab chiqadi. Bu esa bolaga tilni o'zlashtirish imkonini yaratadi. Bola tilni o'zlashtirar ekan, o'z navbatida nutq ham rivojlanib boradi. Psixolingvistika – nutqiy faoliyatning psixologik va lingvistik tomonlarini hamda nutqiy kommunikatsiya, individual nutqiy tafakkur faoliyati jarayonida tildan foydalanishning ijtimoiy va psixologik omillarini o'rganadigan fandır.

Kalit so'zlar: psixolingvistika, nutq, tilning sistema-strukturasi, nutqiy qobiliyat, grammatika, emotsionallik.

Abstract: The article presents the main principles of speech formation in an individual, the possibilities of learning other languages, and the use of technical tools for achieving this. It examines how a child, without any prior information, perceives data from the surrounding environment through vision or computer technologies. During communication and language learning, the child develops a new psychophysiological system – neural connections processing information. Speech and language play an important role in psycholinguistics, combining psychological and linguistic aspects of communication. The paper also discusses social and psychological factors affecting speech activity.

Key words: psycholinguistics, speech, system-structure, speech combination, grammar, emotionality.

Аннотация: В статье представлены основные принципы формирования речи личности, возможности изучения других языков, технические аналоги для их освоения. Рассматривается, как ребенок, не имеющий никакой информации, воспринимает данные из окружающей среды через зрение или компьютерные технологии. В процессе общения и обучения речи ребенок создает новую психофизиологическую систему – нейронные связи, обрабатывающие информацию. Речь и язык играют важную роль в психолингвистике, объединяя психологические и лингвистические аспекты коммуникации. В работе рассмотрены социальные и психологические факторы, влияющие на речевую деятельность.

Ключевые слова: психолингвистика, речь, система-структура, речевая комбинация, грамматика, эмоциональность.

KIRISH

Nutq va tilni qabul qilish hamda yaratish jarayonlari har bir shaxs tomonidan psixo- va neyrolingvistika kontekstida o'rganiladi va tasvirlanadi, chunki insonning nutq qobiliyati uning butun nerv tizimi va psixofiziologiyasi bilan yaqin aloqada. Insonning tilni o'zlashtirishning asosiy prinsiplari va boshqa tillarni o'rgatish imkoniyatlari quyidagi texnik analogiyalar yordamida tushuntirilishi mumkin. Tug'ilgan bolaning miyasini yangi, hech qanday ma'lumot bilan to'ldirilmagan oq qog'ozga yoki kompyuterga qiyoslash mumkin. Kompyuter faoliyatga tayyor bo'lishi uchun unga ma'lumot kiritish zarur bo'lgani kabi, bolaning miyasi ham biologik va genetik jihatdan ishlashga tayyordir va bu jarayon "nutq qobiliyatining biologik va genetik asosi" deb ataladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

A.A. Leontevning ta'kidlashicha, nutqiy faoliyat nazariyasi termini psixolingvistika shug'ullanadigan masalalar doirasini aniqroq belgilab beradi. Psixolingvistika nutqiy faoliyatni nutq akti mazmuni bilan so'zlovchining maqsad-niyati orasidagi aloqadorlik nuqtayi nazaridan o'rganadigan fan. U nutqni idrok etish, tilni



egallash kabi masalalarni o'rganadi. Psixolingvistikaning diqqat markazida individ va kommunikatsiya turadi. Unga ko'ra, so'zlovchi nutqni yuzaga chiqarar ekan, o'zi o'ylagan niyatini ma'lum qoidalar asosida aniq tilning nutq birliklariga uzatadi. Tinglovchi nutqni qabul qilar ekan, nutq ifodalarining tashqi shaklida o'z aksini topgan ma'noni chiqarib oladi.

I.P. Pavlovning so'zlariga ko'ra, neyron aloqalari uchun hal qiluvchi omil ularning "emotsional jihatdan boy bo'lgan kuchli stimullar" bilan qo'llab-quvvatlanishi hisoblanadi. Masalan, ekzotik mevaning nomini bir necha marta eshitganda ham yodlab bo'lmasligi mumkin. Ammo agar ushbu mevani qo'lga olib ko'rsatilsa, hidlansa yoki ta'mini bilsa va bunga muayyan hissiy taassurotlar qo'shilsa, ya'ni lingvistik signalni qo'llab-quvvatlaydigan stimullar paydo bo'lsa, mevaning nomi xotirada mustahkam yodda qoladi.

A.M. Shaxnarovichning fikricha, inson til qobiliyatida nutqni qabul qilish jarayonida barqaror neyron aloqalar - "potensial til etalonlari" paydo bo'ladi va ular paralingvistik kodlar bilan birga mavjud bo'ladi. Bu etalonlar bir necha tizimlarga ega: ritm-melodik strukturani qabul qilish tizimi, asosiy so'zlarni qabul qilish tizimi, so'z yasashiga tegishli affikslarni qabul qilish tizimi va boshqalar. Yangidan qabul qilinayotgan til materialini bosh miyadagi ushbu etalonlar bilan taqqoslab, ular asosida yangi verbal strukturalar modellanadi. Bu jarayon barcha kognitiv jarayonlarning ishlash qonunlari kontekstida amalga oshiriladi: hodisani sintetik tarzda qabul qilish, uning asosiy qismlari va mayda detallarini ajratish hamda detallar, asosiy qismlar va butun hodisa o'rta-sidagi o'zaro munosabatlarni aniqlash. Masalan, grammatikani rus tilini o'rganishda ham shu tarzda "chiqarib olish" mumkin. Rus tilida nutqning dastlabki bosqichida, odatda, "telegraf uslubi" kuzatiladi: o'quvchi nutqda asosiy so'zlarni qo'llaydi, fe'l va otlarning tugash qismlari, artikllar va bog'lovchi fe'llar e'tiborsiz qoladi. Biroq vaqt o'tishi bilan ular o'z o'rnini topadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda psixolingvistik, qiyosiy-tahliliy va tavsifiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nutq va til qobiliyatining shakllanishiga oid ilmiy manbalar o'rganildi hamda A.A. Leontev, I.P. Pavlov va A.M. Shaxnarovichlarning ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Shuningdek, xorijiy tilni o'rganish jarayonida nutq faoliyatining psixofiziologik mexanizmlari, neyron aloqalarning shakllanishi va psixolingvistik omillarning ta'siri nazariy jihatdan tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bola muloqot va o'rganish jarayonida atrof-muhitdan ma'lumotni qabul qilib, uning psixofiziologik tizimi yangi neyron aloqalarni ishlab chiqaradi. Bu esa bolaga tilni o'zlashtirish imkonini yaratadi. Bola tilni o'zlashtirar ekan, o'z navbatida nutq ham rivojlanib boradi.

Biz bilamizki, kompyuter ma'lumotlarni birinchi tilda qayta ishlashga moslashgan bo'lsa ham, ikkinchi tilda ham ishlay oladi. Bunga erishishning birinchi usuli - tarjima dasturlarini o'rnatish bo'lib, ular orqali kompyuter tashqi formal modellar asosida bir tildan ikkinchisiga tarjima qila oladi. Shu o'rinda pedagogik amaliyotda bu yondashuv grammatik-tarjima usuli deb ataladi. Bu jarayonda bolalarda til tizimi formal lingvistik sxemalar asosida shakllantiriladi va yodlab olinadi, nutqiy faoliyat esa shu ma'lumotlarning asosida, zarur hollarda tezkor tarjima orqali amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, kompyuterning butun til tizimini qayta dasturlash imkoniyati ham mavjud bo'lib, bu yangi murakkab til kodlarini kiritish va yangi tashqi tilni ichki mashinali tilga tarjima qilish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda kompyuter avvalgi tildan ham foydalanish qobiliyatini saqlab qoladi. Shunday qilib, optimal o'qitish usullari insonning psixofunksional tizimini qayta dasturlashni ta'minlashi kerak, ya'ni yangi neyron aloqalarni - nutqiy kodlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirishi kerak. Bu insonning yangi tildagi nutqiy faoliyatini tabiiy holatga yaqinlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Ushbu ichki psixofiziologik qayta dasturlash maxsus yo'naltirilgan o'qitish orqali amalga oshirilishi kerak va bu jarayon faqat o'quvchining barcha zarur psixofiziologik funksiyalarini faollashtirish orqali samarali bo'ladi. Kattalarning miyasi ham yangi neyron aloqalarni shakllantirish va tizimlashtirish qobiliyatiga ega bo'lib, agar ular tabiiy usulda rivojlansa, turli tillarga aloqador neyron tizimlar inson psixikasi va miyasida mustaqil va parallel ravishda mavjud bo'ladi, ular bir-biri bilan aralashib ketmaydi.

Shaxsning nutq va til qobiliyatini shakllantirish hamda rivojlantirish jarayoni bosh miyaning nutqni qabul qilish, tushunish va yaratish uchun mas'ul bo'lgan neyron aloqalari tizimlarini kengaytirish, tarmoqlashtirish va mustahkamlashni o'z ichiga oladi. Neyron aloqalar tashqi stimullarning hissiy a'zolarga ko'rsatadigan ko'p omilli ta'siri va shular orqali tahlilchi tizimga - bosh miyaning qavatidagi zonalarga ta'sir o'tkazishi natijasida paydo bo'ladi. Ushbu tizim tashqaridagi signallarni tahlil va sintez qilishni (nutqni qabul qilishni) amalga oshiradi. Shuningdek, neyron aloqalar ko'p marotaba nutqiy signallarni qayta ishlab chiqarish natijasida shakllanadi va nutqni yaratadi.



Shunday qilib, shaxsning nutq va til qobiliyatining rivojlanishi barcha ruhiy funksiyalar va jarayonlarning, intellektual va emotsional jihatlarining birgalikda faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishiga bog'liq. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, nutqiy signal hech qachon inson miyasiga faqat verbal belgilar yoki kodlar shaklida kelmaydi. U doimo ko'plab ekstralingvistik stimullar bilan birga qabul qilinadi. Ularning qabul qilinishi barcha hissiy a'zolar va tahlilchi turlarining faoliyati bilan ta'minlanadi. Boshqa so'z bilan aytganda, grammatik, sintaktik, leksik va fonetik hodisalarga harakat va hissiy taassurotlar kabi to'liq hissiy tuyg'ular gammasi hamrohlik qiladi. Aynan shu tuyg'ularning majmuasi orqali inson miyasi verbal kodni qabul qilgandan keyin kelayotgan ma'lumotda ma'no izlaydi. Shu sababli, u tomonidan shakllantirilgan neyron aloqalar mazmunli deb ataladi. Chet tillarini o'qitishda ko'pincha til komponentlari psixik jarayonlardan uzoqlashtirilgan holda berilganligi sababli, bu nutqni avtomatik yaratish va qabul qilish mexanizmlarining buzilishiga olib keladi.

Til qobiliyatini kengaytirish va chet tilda avtomatik tarzda ishlaydigan kod tizimini shakllantirish uning inson psixikasida yangi psixik stimullar va belgilar bilan birgalikda yaratilishi va mustahkamlanishiga bog'liq. Bu tizimning bir bo'g'inini qo'zg'atish butun mexanizmni ishga tushiradi. Psixolingvistik tajribalar shuni ko'rsatdiki, har bir so'z bilan bog'langan so'zlar doirasi mavjud bo'lib, bu doira assotsiatsiya maydoni deb ataladi. Xotirada bir so'z paydo bo'lishi butun so'z zanjirini yodga solishi mumkin.

Psixolingvistik metod insonning bosh miyasini o'qitish jarayonida ko'p funksiyali nutqiy kodlar va assotsiatsiya maydonlarini ishlab chiqarish tizimini shakllantirishga yordam beradi. An'anaviy chet tillarini o'rgatishda ma'lum bir shartli aloqalar faqat til tizimining qoidalarini maqsadli yodlab olish va mantiqiy harakatlar orqali shakllantiriladi. Natijada ular insonning bosh miyasida formal sxemalar va operatsiyalarning aksini o'zida saqlab qoladi, lekin chet tilidagi nutqni avtomatik ravishda qabul qilish yoki ishlab chiqarishga yordam bermaydi va quyidagi holatni tushuntirish talab etiladi. Ma'lumki, tilga ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlarining talabalari o'z qobiliyatlari va darslar ko'pligi tufayli chet tilini belgilar tizimi sifatida o'zlashtirib oladilar. Biroq ushbu tildan amaliy, ya'ni avtomatik foydalanish sun'iy ravishda o'rganilgan qoidalar sababli qiyinlashadi. Faqatgina til muhitiga "moslashtirish" usuli orqali tilni amaliy faoliyatga olib kelish mumkin. Aynan "moslashtirish" sharoitida, ya'ni yangi psixologik sharoitlarda nutq mexanizmlari faol bo'ladi. Demak, mantiqiy aloqalarga asoslangan chet tili kod tizimi faqat til kodlarini boshqasiga "o'tkazish" rejimida ishlay oladi. U faqat mantiqiy komponentlar faollashganida harakatchan bo'ladi, bu esa uni qisman cheklaydi.

Grammatikani yangi psixolingvistik yondashuv kontekstida o'zlashtirish qanday amalga oshiriladi? Ta'kidlash joizki, grammatik va umumiy til tizimini o'zlashtirish til qobiliyatini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Grammatik ma'lumot, shuningdek, tilning boshqa barcha darajalaridagi lingvistik ma'lumotlari nutq jarayoniga kiritiladi va ekstralingvistik signallar orqali mustahkamlanadi. Bu signallar uni qayta ishlash va qayta tiklashga yordam beradi. Bu esa til tizimining, jumladan grammatikaning, "o'z-o'zidan yaratiladigan" xususiyati haqida gapirishga imkon beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, psixolingvistik yondashuv xorijiy tillarni o'rganishda nutq va til qobiliyatini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Nutq faoliyatining shakllanishida neyron aloqalar, psixofiziologik jarayonlar hamda emotsional omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Tilni o'qitishda psixolingvistik mexanizmlarni hisobga olish o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi.

Takliflar:

1. Xorijiy tillarni o'qitishda psixolingvistik yondashuv asosidagi metodlardan keng foydalanish.
2. O'quv jarayonida emotsional va kommunikativ muhitni kuchaytirish.
3. Nutq faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шахнарович А.М. Грамматиканинг онтогенезига оид муаммо // Болаларнинг нутқий ва психологиявий ривожланиши. М., 1998. С. 34,29.
2. Гумбольдт В. фон. Тилшунослик бўйича танланган ишлар. М., 1984. С. 29.
3. Рубинштейн С.Л. Умумий психология асослари. С.-Пб., 1999. С. 382, 552.
4. Павлов И.П. Полное собрание трудов. М.-Л., 1949. Т. 3. С. 337.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.